



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 508 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Luis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish	14
Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov	
O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqov	
Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	
O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari	71
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане	76
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan	81
S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari	88
Muxamedov Ravshan Zafarovich	
Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari	93
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati	99
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash	105
Uraqov Shokir Ulashovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari	112
Istamova Sojida Kaxarovna	
The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan	117
Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna	
Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari	126
Muradov Botir Xayat	
Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки	136
Салимова Юлдуз Исаковна	
Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance	141
Karlibaeva Gulshat	



Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari.....	147
Absamatov Anvar Ergashovich	
Перспективы цифрового развития сектора материального производства.....	153
С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева	
«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains»	161
Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu	
Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan	169
Nigmatova Malika	
Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva).....	177
Sabina Uroкова	
Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi.....	184
Daminova Barno Esanovna	
Опыт турции в управлении миграционными кризисами	189
Бегматов Хусанбек	
Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish.....	193
Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li	
Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsonal asoslari.....	197
Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich	
Moliyaviy outsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari	202
San'atbek Komilovich Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov	
Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari	214
Alimov Fazliddin Xalimovich	
Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации.....	220
Котов В.А., Шадиева Д.Х.	
Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar	225
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari.....	228
Kasimova Muxlisa Anvar qizi	
Chemical industry in uzbekistan: challenges and development	235
Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna	
Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari.....	240
Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li	
Globalashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytirishda yashil iqtisodiyotning ahamiyati.....	246
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna	
Qibray tumanining 2021-2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati.....	249
Siddikov Alisher Ismoilovich	
Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili	253
Majidov Nizom Baxramovich	
Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi.....	259
Ermatov Nosir Tohirovich	
Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash	265
Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna	
Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана.....	272
Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна	
O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari.....	280
Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li	



Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики	288
Абдуллаев Абдурауф	
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari	299
Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi	303
Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva	
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta'minlash	310
Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich	
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qo'llashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari	315
Azizova Saodat Xabibulloyevna	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish bo'yicha yevropa tajribasi	320
Karlibaeva Gulshat	
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sog'lom raqobat muhitiga ta'siri	325
Luqmanov Sharifxon A'zam o'g'li	
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish	330
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан	336
Хамракулова Сусанна Тотуховна	
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy ko'rsatkichlarini prognozlash modellarini qo'llash	340
Ibragimova Gulchexra Toxirovna	
Raqamli ta'lim sharoitida liderlikning yangi qirralari	357
Oqmullaev Ravshan Raximjon o'g'li, Xodjieva Durdona Abdurasulovna	
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях	361
Muradov Botir Xayat	
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bog'liqligi, xalqaro tajriba va O'zbekiston uchun tavsiyalar	370
Xushmurotov Zoyir Bektemirovich	
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market	374
Zebiniso Ganiyeva	
Farovonlikni baholash bo'yicha ilg'or xorijiy nazariy yondashuvlar	379
Norqobilov Nusratilla Norsaitovich	
O'zbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash	384
Umirova Dilnoza Safarovna	
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan	393
Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod	
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market	399
Juraboev Haliljon	
Iqtisodiy o'sish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yo'llari	404
Haydarov Jahongir Aktamovich	
Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar	410
Quvondiqov Farrux Ibragimovich	
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari	418
Dadenova Gulxan Kenesbaevna	
Механизмы совершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана	422
Намозов Жасурбек Кувадович	
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов	428
Хазираткулов Собиржон	



На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран	435
Матлюбов Хуршид Жамшидович	
Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari	443
Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli	
Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг	448
Кайыбеков Парахат Конысбаевич	
Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili	454
Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli	
Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish	458
Tolibov Shoxrux Muminovich	
Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari	463
Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli	
Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan	468
Sattarov R.A.	
Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region	476
Daminova Barno Esanovna	
Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli	480
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Oliy taʼlim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari	485
Salimov Akmal Alimjonovich	
Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari	490
Shadiyev Alisher Xudoynazarovich	
Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari	496
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Oʻzbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga taʼsiri: muammolar va rivojlanish istiqbollari	502
Tursunov Toʻlqin Joʻraqulovich	



O'ZBEKISTONDA UZUMCHILIKNING OZIQ- OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Tursunov To'liqin Jo'raqulovich

Navoiy viloyati, O'simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi
rahbariyat boshliq o'rinbosari
ORCID: 0009-0004-0775-8751

Annotatsiya: Mazkur maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda uzumchilik tarmog'ining iqtisodiy va strategik ahamiyati tahlil qilingan. O'zbekistonning iqlim va tuproq sharoitlari uzum yetishtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, sohada kuzatilayotgan muammolar ishlab chiqarish hajmining cheklanganligi, qayta ishlash infratuzilmasining zaifligi, eksport salohiyatining to'liq ishga tushmagani, moliyalashtirish va kadrlar yetishmovchiligi aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda tahliliy, tizimli va qiyosiy yondashuvlardan foydalangan holda ushbu sohani rivojlantirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, uzumchilik, agrar siyosat, qayta ishlash, eksport salohiyati, innovatsion texnologiyalar, klasterlashuv, iqtisodiy samaradorlik.

Abstract: This article analyzes the strategic and economic significance of viticulture in ensuring food security in Uzbekistan. The country's favorable climate and soil conditions create ample opportunities for grape production. However, several systemic challenges are identified limited production volumes, weak processing infrastructure, underutilized export potential, insufficient financing, and a shortage of qualified personnel. Based on analytical, systematic, and comparative approaches, the study proposes concrete measures to address these issues and strengthen food security through the development of the viticulture sector.

Key words: food security, viticulture, agrarian policy, processing, export potential, innovative technologies, clustering, economic efficiency.

Аннотация: В данной статье рассмотрено стратегическое и экономическое значение виноградарства в обеспечении продовольственной безопасности Узбекистана. Природно-климатические условия страны способствуют развитию данного сектора. Однако выявлены системные проблемы ограниченные объемы производства, слабая инфраструктура переработки, неиспользованный экспортный потенциал, недостаточное финансирование и нехватка квалифицированных кадров. На основе аналитического, системного и сравнительного подходов предложены конкретные меры по их устранению, что способствует укреплению продовольственной безопасности.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, виноградарство, аграрная политика, переработка, экспортный потенциал, инновационные технологии, кластеризация, экономическая эффективность.

KIRISH

Davlatning asosiy maqsadlaridan biri-aholining turmush tarzini yaxshilash hamda ularning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli sharoitlar yaratishdan iborat. Bu borada aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash eng ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi [10]. Aynan shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi XXI asrning eng dolzarb global muammolaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki oziq-ovqat xavfsizligi fuqarolarning yetarli, sifatli va xavfsiz oziq-ovqat



mahsulotlariga doimiy va barqaror ravishda ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tizimlar majmuasidir. Bu esa bevosita aholi turmush darajasi va davlatning ijtimoiy siyosat samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir.

Shu bois mazkur tushuncha Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi, FAO (BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti) hamda qator xalqaro institutlar tomonidan keng targ'ib qilinib, davlatlar oldiga strategik vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Natijada, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash har bir mamlakat uchun ustuvor siyosiy va iqtisodiy maqsadga aylanmoqda. Xususan, mamlakat miqyosida ushbu maqsadga erishishda qishloq xo'jaligi tarmoqlari, ayniqsa oзуqaviy mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash sohalarining o'rni beqiyosdir. Shu jihatdan agrar sektor, xususan mevali daraxtlar va uzumchilik kabi yuqori qiymatli yo'nalishlar nafaqat aholi uchun oзуqа manbai, balki iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yalpi ichki mahsulotning 25-30 foizini tashkil etib, aholining katta qismini ish bilan ta'minlaydi. Ushbu soha oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, eksport salohiyatini oshirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, uzumchilik sohasi agrosanoat majmuasining an'anaviy va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida ajralib turadi. Mamlakatning qulay iqlim va tuproq sharoiti ushbu yo'nalishni keng rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Haqiqatdan ham, respublikaning deyarli barcha hududlarida uzumzorlar mavjud bo'lib, uzum mahsuloti nafaqat yangi holda iste'mol qilinadi, balki uni qayta ishlash orqali mayiz, sharbat, murabbo, vino va boshqa yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi. Shu nuqtayi nazardan olib qarganda, uzumchilik tarmog'i nafaqat aholi uchun muhim oзуqа va daromad manbai, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining cheklanganligi va aholi sonining ortib borishi sharoitida mahalliy mahsulotlarni yetishtirish va qayta ishlash salohiyatini yuksaltirish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, uzumchilik tarmog'ini har tomonlama rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham strategik ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Umumiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda qishloq xo'jaligining turli yo'nalishlari, jumladan uzumchilik sohasi muhim o'rin egallaydi. Respublikamizning iqlim va tuproq sharoiti aynan ushbu yo'nalishni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. Shu bois, so'nggi yillardagi ilmiy tadqiqotlarda ham uzumchilikning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati keng yoritilmoqda.

Jumladan, "Viticulture in Uzbekistan: A Tradition of Excellence" nomli maqolada ta'kidlanishicha, uzum yetishtirish mamlakatning deyarli barcha hududlarida amalga oshiriladi va bu, o'z navbatida, aholining sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qoplash imkonini beradi. Shuningdek, ushbu sohada qayta ishlash orqali qo'shimcha qiymat yaratiladi, bu esa eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi [9].

Bundan tashqari, "Impact of Grape Production on Improved Family Income in Uzbekistan" nomli maqolada uzumchilikning aholi daromadlariga bo'lgan ta'siri empirik tahlil etilgan. Mualliflarning qayd etishicha, uzum yetishtirish orqali mahalliy aholi nafaqat oziq-ovqat bilan ta'minlanadi, balki qo'shimcha daromad manbai orqali oziq-ovqat xarajatlarini qoplash imkoniyatiga ham ega bo'ladi. Bu holat, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida e'tirof etiladi [8].

Shu bilan birga, M.M. Ibrohimov tomonidan yozilgan "Prospects of the Viticulture Development in Uzbekistan" nomli maqolada uzumchilik sohasidagi mavjud muammolar va istiqbolli rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotda suv resurslaridan samarali foydalanish, klaster tizimi asosida faoliyat yuritish va texnologik yangilanishlar orqali uzumchilikni barqaror rivojlantirish mumkinligi asoslab berilgan. Muallif ushbu tarmoqni oziq-ovqat xavfsizligining strategik tarkibiy qismi sifatida ko'rish lozimligini alohida ta'kidlaydi [4].

Shuningdek, Isroilov va Ochilovlarning hammuallifligidagi "Improvement of Organizational and Economic Mechanisms of Vine Clusters" nomli maqolada uzumchilik klasterlarini tashkil etish modeli, ularning samaradorligi va iqtisodiy afzalliklari asoslab berilgan. Mualliflarning ta'kidlashicha, klasterlashgan tarzda tashkil etilgan uzumchilik subyektlari mahalliy mahsulot yetishtirish, uni qayta ishlash hamda ichki va tashqi bozorlarda realizatsiya qilish orqali nafaqat daromad olish, balki oziq-ovqat barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi [5]. Qolaversa, Sh. Amanov va O. Fayziyevlarning "Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mamlakat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlari" nomli maqolasida jahonda kechayotgan globallashuv jarayonlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri, aholi sonining ortishi, pandemiya va boshqa global muammolar sharoitida oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab oshib borishi bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlari jismoniy, iqtisodiy va sanitariya xavfsizligi bo'yicha qo'yilgan talablarga, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish, saqlash va taqsimlash bo'yicha O'zbekistonda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhokama etilgan [3].



Shuningdek, O. Fayziyevning boshqa bir nechta tadqiqotlarida O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar tahlili, agrar siyosatning ustuvor yo'nalishlari, oziq-ovqat mahsulotlari sifatini boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, chorvachilikni rivojlantirish, savdo-logistika infratuzilmasini yangilash hamda ta'lim va fan integratsiyasi masalalari yoritilgan. Shu bilan birga, mamlakat oziq-ovqat tizimini mustahkamlashga qaratilgan aniq vazifalar va amaliy takliflar ilgari surilgan [1; 2; 6; 7].

Nihoyat, keltirilgan tahlillar shuni anglatadiki, uzumchilik sohasini rivojlantirish nafaqat agrar sohada iqtisodiy faollikni oshiradi, balki aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish, ularning daromadini oshirish va mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur mavzuni yoritishda tahlil, induksiya, deduksiya, tizimli va kompleks yondashuv usullaridan foydalanildi hamda mahalliy va xorijiy olimlarning uzumchilikni rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi ilmiy qarashlari, shuningdek, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar, xalqaro tashkilotlarning (FAO, UNDP) tavsiyalari o'rganilib, asoslangan xulosa va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, uzumchilik tarmog'i oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Biroq, ushbu sohada bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ularni bartaraf etmasdan turib yuqori samaradorlikka erishish mushkul. Shu munosabat bilan, mavjud muammolarni chuqur tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi (1-jadval).

1-jadval. Uzumchilik tarmog'ida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi muammolar va ularni hal etish yo'llari¹

№	Mavjud muammolar	Rivojlanish istiqbollari
1.	Ishlab chiqarish hajmi bozor talablariga mos ravishda muvozanatlashgan	Intensiv va yuqori hosilli texnologiyalarni joriy etish
2.	Innovatsion texnologiyalarni joriy etish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda	Zamonaviy agrotehnika, tomchilatib sug'orish, mexanizatsiyani joriy etish
3.	Qayta ishlash infratuzilmasi bosqichma-bosqich takomillashtirilmoqda	Sharbat, mayiz, murabbo va boshqa qayta ishlash korxonalarini tashkil etish
4.	Eksport salohiyati bosqichma-bosqich faollashtirilmoqda	Xalqaro standart va sertifikatlash (Halal, Global G.A.P) tizimini keng joriy etish
5.	Eski bog'lar va past hosilli navlar	Yangi, eksportbop, yuqori hosilli navlarni yaratish va joriy qilish
6.	Mavjud suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin	Suv tejamkor texnologiyalardan (tomchilatib sug'orish) keng foydalanish
7.	Moliyaviy resurslarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar mavjud	Imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va investitsiyaviy mexanizmlarni rivojlantirish
8.	Kadrlar tayyorlash va agrar konsalting xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha katta salohiyat mavjud	Agrar ta'limni rivojlantirish, agrokengash markazlarini tashkil etish
9.	Tashish va logistika tizimini modernizatsiya qilish orqali xizmat ko'rsatish quvvatlarini oshirish imkoniyati mavjud	Sovutgichlar va logistika infratuzilmasini yangilash va kengaytirish
10.	Agrobozorda kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud	Uzumchilik klasterlari va kooperativlarini tashkil etish orqali "daladan dasturxongacha" tizimini yo'lga qo'yish

Xususan, ushbu yo'nalishdagi rivojlanish imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, uzum yetishtirish hajmini oshirish salohiyati mavjudligini ta'kidlash mumkin. Hozirda ayrim hududlarda uzumchilikni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha choralar ko'rish zarurati mavjud bo'lib, bu esa hududlar kesimida ishlab chiqarish hajmini muvozanatlash va umumiy hosildorlikni oshirish imkonini beradi. Mazkur imkoniyatlardan samarali foydalanish kelgusida bozorda mahsulot ta'minotini barqarorlashtirishga va uzumchilik tarmog'ining raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi



Uzumchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish borasida keng istiqbollar mavjud. Jumladan, intensiv texnologiyalarni keng joriy etish yo'nalishida salmoqli salohiyat mavjud. Masalan, zamonaviy tomchilatib sug'orish tizimlari, mexanizatsiyalashgan texnikalar, yuqori hosildor navlarni joriy etish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali hosildorlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, ilg'or agrotexnik usullarni amaliyotga tatbiq etish bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

Bundan tashqari, mahsulotlarni qayta ishlash infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishida ham muhim imkoniyatlar mavjud. Uzumdan tayyor mahsulotlar — sharbat, konservalar, murabbo va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish orqali ichki va tashqi bozor ehtiyojlarini samarali qondirish mumkin. Shu bilan birga, sovutgichlar va zamonaviy logistika tizimini shakllantirish orqali mahsulot yo'qotishlarini minimallashtirish imkoniyati mavjud.

Eksport salohiyatini to'liq ishga solish orqali xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, xalqaro standartlarga javob beradigan mahsulot sifati, sertifikatlash tizimlarini takomillashtirish, brendlash va marketing strategiyalarini kuchaytirish orqali eksport hajmini oshirish rejalashtirilmoqda.

Yana bir muhim yo'nalish — bu uzum bog'larini yangilash va zamonaviy ozuqa bazasini shakllantirishdir. Samaradorligi yuqori navlarni joriy etish, eskirgan bog'larni bosqichma-bosqich yangilash orqali mahsulot sifati va miqdorini oshirish imkoniyati mavjud.

Shuningdek, kadrlar tayyorlash va ixtisoslashgan agrar konsalting xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha ham istiqbolli yo'nalishlar mavjud. Agronomiya va agrobiznes sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlash, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish orqali innovatsion rivojlanishni jadallashtirish mumkin.

Sug'oriladigan yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, samaradorligi yuqori texnologiyalarni joriy etish orqali suv tejovchi sug'orish usullarini kengaytirish ham tarmoq rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, moliyalashtirish va investitsion qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali fermer va dehqon xo'jaliklarining texnik hamda moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, kichik tadbirkorlik subyektlari uchun kredit va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning iqtisodiy faolligini oshirish mumkin.

Umuman olganda, yuqoridagi yo'nalishlar bo'yicha izchil strategik yondashuvlar va amaliy choralarni amalga oshirish orqali uzumchilik tarmog'ini rivojlantirish nafaqat tarmoq samaradorligini oshiradi, balki qishloq joylarda bandlikni ta'minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekistonda uzumchilikni rivojlantirish istiqbolari²

№	Yo'nalish	Kutiladigan natijalar
1.	Oziq-ovqat xavfsizligi	Aholi sifatli va foydali uzum mahsulotlari bilan ta'minlanadi, importga bog'liqlik kamayadi.
2.	Aholi daromadlari	Fermerlar va klasterlar daromadlari ortib, yangi ish o'rinlari yaratiladi.
3.	Qayta ishlash va eksport	Uzum mahsulotlari asosida yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqariladi va eksport hajmi oshadi.
4.	Innovatsiyalar va agrotexnologiyalar	Yangi navlar va resurs tejamkor texnologiyalar joriy etilib, samaradorlik ortishi ta'minlanadi.
5.	Agrar ta'lim va ilm-fan	Ilmiy izlanishlar amaliyot bilan bog'lanadi, mutaxassislar tayyorgarligi kuchaydi.
6.	Xalqaro bozorda raqobatbardoshlik	Sifatli va sertifikatlangan mahsulotlar xalqaro bozorda talabga ega bo'ladi.
7.	Eksportdan tushumlar	Eksport hajmi va valyuta tushumlari ortib, to'lov balansi muvozanatlanadi.
8.	Mamlakat agrar brendi	"Made in Uzbekistan" brendi xalqaro agrar bozorda tan olinadi va mavqe mustahkamlanadi.

Yuqoridagi 2-jadval ma'lumotlari tahlili asosida quyidagi ilmiy mulohazalarni bildirish mumkin.

Birinchidan, uzumchilik sohasi orqali aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sezilarli ildamlanish kuzatiladi. Xususan, sifatli va foydali uzum mahsulotlarining ichki bozor bo'ylab keng tarqalishi importga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Bu holat esa milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, uzumchilik klasterlari va fermer xo'jaliklarining iqtisodiy faolligining ortishi natijasida aholining daromadlari oshadi. Yangi ish o'rinlarining yaratilishi va bandlik darajasining kengayishi bevosita aholi farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

2 Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqildi



Uchinchidan, uzum mahsulotlarini qayta ishlash imkoniyatlarining kengayishi orqali yuqori qiymatli tayyor mahsulotlar mayiz, murabbo, sharbat va boshqalar ishlab chiqarish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa eksport salohiyatini oshiradi va tashqi bozorda mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Keyingi muhim yo'nalish-innovatsiyalar va agrotexnologiyalarni joriy etishdir. Resurs tejamkor texnologiyalar, yangi serhosil navlar, raqamli agroqarorlar va intellektual boshqaruv tizimlarining qo'llanilishi mehnat unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, agrar ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar, ya'ni ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga integratsiya qilish, mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirish orqali tarmoqda bilim va malaka darajasi oshadi. Ushbu ijobiy natijalar, o'z navbatida, xalqaro bozorda O'zbekiston uzumchilik mahsulotlarining raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sertifikatlangan va sifatli mahsulotlarga talabning ortishi mamlakatning eksport salohiyatini oshirishga zamin yaratadi.

Bundan tashqari, eksport hajmi va valyuta tushumlarining ortishi iqtisodiyotning tashqi muvozanatini ta'minlaydi. Bu esa davlatning to'lov balansi va valyuta zaxiralarining barqarorligini mustahkamlashga yordam beradi. Nihoyat, barcha ushbu natijalarning umumiy samarasi sifatida "Made in Uzbekistan" brendi xalqaro agrar bozorda o'z o'rnini mustahkamlaydi. Milliy mahsulotlar uchun ijobiy imidj shakllanishi esa O'zbekistonning agrar salohiyatining global miqyosda tan olinishiga olib keladi.

Shunday qilib, uzumchilik sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar nafaqat tarmoq samaradorligini oshiradi, balki aholining turmush darajasini yaxshilash, milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va xalqaro bozorda milliy brendni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu sababli, uzumchilikni rivojlantirish strategik ahamiyatga ega bo'lib, uni tizimli va ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali amalga oshirish muhimdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, uzumchilik sohasi nafaqat agrar sektordagi iqtisodiy faollikni oshirishda, balki milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Garchi respublikaning iqlim va tuproq sharoiti uzumchilikni keng rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratayotgan bo'lsa-da, soha hali to'liq salohiyatini namoyon eta olmagan. Tahlillar shuni anglatadiki, mavjud tizimli muammolar ishlab chiqarish hajmining yetarli emasligi, innovatsion texnologiyalar qo'llanilishining sustligi, qayta ishlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi, eksport salohiyatidan to'liq foydalanilmasligi, kadrlar tayyorlash tizimidagi kamchiliklar hamda moliyaviy resurslarning cheklanganligi milliy oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilgan kompleks va tizimli choralar orqali birinchi navbatda uzumchilik tarmog'ining rivojlanishi oziq-ovqat xavfsizligining strategik komponenti sifatida mustahkamlanadi, bu esa mahsulotlar aholini to'yimli, yuqori sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlash orqali importga qaramlikni kamaytiradi. Shu bilan birga, qayta ishlash infratuzilmasining zaifligi, past mahsuldorlik va eksportdagi to'liq ishga tushmagan salohiyat kabi muammolarni bartaraf etish uchun innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish, yuqori qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish va xalqaro sertifikatlash tizimini yo'lga qo'yish zarur bo'ladi. Resurslardan samarali foydalanishga asoslangan texnologik modernizatsiya, jumladan, tomchilatib sug'orish tizimi, agroklimatik sharoitga mos navlar, raqamli monitoring va mexanizatsiya kabi yechimlar ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi. Fermer xo'jaliklari va klaster subyektlarining iqtisodiy faolligi orqali esa aholi daromadlari ortadi, yangi ish o'rinlari yaratiladi va bu holat ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga olib keladi. Sohani rivojlantirishda ilm-fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish, ya'ni ilmiy natijalarni amaliyotga tatbiq etish, agrar ta'lim muassasalari, ilmiy markazlar hamda ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi uzviy aloqalarni yo'lga qo'yish orqali sohaga zamonaviy bilimlar joriy qilinadi. Shu bilan birga, uzum mahsulotlarini xalqaro bozorlarga olib chiqish uchun sifatni boshqarish va brendlash mexanizmlarini kuchaytirish, "Made in Uzbekistan" agrar brendi ostida mahsulotlarni xalqaro talab va standartlarga muvofiq tayyorlash orqali eksport salohiyati oshiriladi va raqobatbardoshlik mustahkamlanadi. Barqaror rivojlanish uchun moliyalashtirish va investitsiya mexanizmlarini takomillashtirish, jumladan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, sug'urta va kooperatsiyaga asoslangan investitsion loyihalar orqali kichik va o'rta ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlari kengaytirilishi lozim. Logistika va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish esa mahsulot yo'qotishlarini kamaytiradi, bozorga yetkazib berish zanjirining samaradorligini oshiradi, sovtgich omborlari, zamonaviy transport vositalari va eksportga yo'naltirilgan logistika tizimlari bu borada hal qiluvchi rol o'ynaydi. Kooperatsiya va klasterlashuv asosida "qiymat zanjiri" (value chain) ni birlashtirish tizimi samarali faoliyat yuritishi kerak, bu tizim orqali oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va aholi ta'minoti kafolatlanadi. Shunday qilib, uzumchilik tarmog'ining ustuvor rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o'sishni jadallashtiradi, balki ekologik muvozanat va ijtimoiy taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu jihatlar esa ushbu sohaga milliy agrar siyosatning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratishga asos bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Fayziyev, O.R. (2017). Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashda, o'simlik moyi muammosi. "Qishloq xo'jaligi fanlari ilmiy natijalarining ishlab chiqarish rivojiga ta'siri" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami, Nukus, 90-93.
2. Файзиёв, О.Р. (2020). Проблемы обеспечения масложировой продукцией и пути их решения в Узбекистане. Экономика и предпринимательство, №2(115), Т.14, С. 388-392. (Moskva).
3. Amanov, Sh., Fayziyev, O. (2021). Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda mamlakat agrar siyosatining ustuvor yo'nalishlari. Agroiqtisodiyot, №1, B. 48-53.
4. Ibragimov, M.M. (2021). Prospects of the viticulture development in Uzbekistan. The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering, 3(02), 1-7. <https://www.theamericanjournals.com/index.php/tajabe/article/view/1203>
5. Isroilov, I.X., Ochilov, I.X. (2021). Improvement of organizational and economic mechanisms of vine clusters. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(01), 105-111. <https://theamericanjournals.com/index.php/tajssei/article/view/1168>
6. Fayziyev, O.R., Eshonxojaev, Y.R., Musurmonov, N.D. (2022). Meva-sabzavot mahsulotlari savdosida marketing faoliyatini takomillashtirish masalalari. Models and Methods for Increasing the Efficiency of Innovative Research: A Collection of Scientific Works of the International Scientific Conference (13 June, 2022). Berlin, ISSUE 12, B. 210-215.
7. Fayziyev, O., Aminboyeva, D. (2023). Qishloq xo'jaligida bioresurslar asosida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy ahamiyati. Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences, Vol. 3, Issue 5, B. 164-167. (ISSN: 2181-2853, UIF: 8.3, SJIF: 5.961)
8. (2023). Impact of grape production on improved family income in Uzbekistan. International Journal of Agriculture and Food Science Technology, Vol. 14, Issue 2, B. 221-229. <https://zenodo.org/record/10298763>
9. Jumaniyozov, F.Q., Mirzayev, M. (2024). Viticulture in Uzbekistan: a tradition of excellence. Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 5(12), B. 8-12. <https://it.academiascience.org/index.php/it/article/view/658>
10. Yangi qonun bilan oziq-ovqat xavfsizligi qanday ta'minlanadi? (2024). O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UzA). https://uza.uz/uz/posts/yangi-qonun-bilan-oziq-ovqat-xavfsizligi-qanday-taminlanadi_689012



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>